

Date: 27th July-2026

**MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI, MAZMUNI HAMDA
KLASSIFIKATSIYASI**

Bafoyev Bunyodjon Burhon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Nobank kredit tashkilotlarini nazorat
qilish demartamenti, katta iqtisodchisi



Kirish: Pul mablag'larining vaqt bo'yicha qiymati konsepsiyasidan kelib chiqqan holda pul oqimlari tavsifini belgilash korxonalar moliyaviy xo'jalik faoliyatining ajralmas qismi bo'lgan turli xil moliyaviy aktivlar bilan operatsiyalar samaradorligini tahlil qilishning bazaviy asoslariga tayanadi. Xususi yoki qarz kapitalini jalb qilish, bo'sh pul mablag'larini daromad olish maqsadida joylashtirish, boshqa kompaniyalar kapitalida ishtirok etish va boshqa shu kabi uzoq muddatli operatsiyalar o'tkazish korporativ moliyani boshqarish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlashda amaliyotda foydalaniladigan moliyaviy instrumentlar mohiyatini chuqur anglash, ularni tahlil qilishning nazariy-metodologik tamoyillari va metodlarini bilish talab etiladi. Bunday operatsiyalarning maqsadi turli xil bo'lishiga qaramasdan, ularni o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra ikkita kategoriyaga – aktiv (turli xil moliyaviy aktivlarga mablag'larni joylashtirish) va passiv (korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlash)ga bo'lish mumkin.

Iqtisodiyotda va korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatida muhim rol o'ynovchi uzoq muddatli moliyaviy instrumentlarning asosiy turlari aksiyalar va obligatsiyalar hisoblanadi. Aksariyat holatlarda ular bilan o'tkaziladigan operatsiyalar samaradorligini baholash metodlari va ko'rsatkichlariga e'tibor qaratiladi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, keltirib o'tiladigan metodlar va modellarni har qanday moliyaviy aktivga nisbatan qo'llash mumkin. Moddiy shaklga ega obyektlardan farqli ravishda moliyaviy aktivlar hujjatli yoki elektron (hujjatsiz) ko'rinishda amal qiluvchi bitimlarni o'zida aks ettiradi. Bunday bitimlarga misol sifatida tijorat banklariga joylashtirilgan depozitlar yoki investitsiya va pensiya fondlari paylarini sotib olish haqidagi shartnomalar, sug'urta polislari, turli xil qimmatli qog'ozlar va boshqalarni keltirish mumkin. Bunday bitimlarning xilma-xilligiga qaramasdan, ularning umumiy xususiyati egalik qiluvchi shaxs (xaridor) uchun ular investitsiyalash obyekti hisoblanishida namoyon bo'ladi hamda ifodalash uchun maxsus moliyaviy aktiv atamasidan foydalaniladi. Qayd etib o'tilganidek, moliyaviy aktivlar mulkchilik shakliga bog'liq holda mulkiy huquqni (masalan aksiyalar) yoki qarz munosabatlari bo'yicha mulkiy huquqni (masalan, davlat va korporativ obligatsiyalar, bank depozitlari, depozit va jamg'arma sertifikatlari, veksellar va boshqalar) tasdiqlovchi hujjatlar yoki bitimlarni o'zida aks ettiradi. Moliyaviy aktivlarning iqtisodiy mohiyatini anglatuvchi eng muhim xususiyat ularning daromad keltirishi hisoblanadi. Bu mulkdor uchun uning kapitali vazifasini bajaradi. Lekin bunday kapital real kapitaldan farqli ravishda ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi. Moliyaviy aktivlarning muhim o'ziga xos xususiyatlari sifatida huquqiy tan olinishi, muomalada bo'lishi (erkin

Date: 27th July-2026

oldi-sotdi obykti sifatida bozorda amal qilishi), aniq standartlarga ega bo'lishi (qonunchilik bilan belgilangan majburiy rekvizitlarga egaligi), likvidligi (pulga aylanish qobiliyatiga egaligi), riskligi (kutladigan daromad miqdorini har doim ham aniq belgilash imkonining mavjud emasligi) kabilarni keltirish mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda moliyaviy aktiv tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Moliyaviy aktiv – bu pullik qiymatga ega, mulkiy huquqni o'zida ifodalovchi, bozorda mustaqil muomalada bo'ladigan, oldi-sotdi yoki boshqa bitimlar obykti bo'la oladigan, shuningdek, daromad olish manbasi sifatida xizmat qiluvchi hujjat yoki bitim hisoblanadi.

Turi	Xususiyatlari	Misollar
Moddiy moliyaviy aktivlar	Jismoniy shaklda mavjud, qiymati aniq, kelajakdagi daromad manbai bo'lishi mumkin	Naqd pul, obligatsiyalar, aksiyalar
Nomoddiy moliyaviy aktivlar	Jismoniy shaklga ega emas, huquqiy yoki kontraktual asosda qiymatga ega	Patentlar, litsenziyalar, savdo shartnomalari
Likvid aktivlar	Tezda pulga aylantirilishi mumkin, risk darajasi past	Naqd pul, bank depozitlari, qisqa muddatli obligatsiyalar
Likvid bo'lmagan aktivlar	Tez pulga aylantirish qiyin, uzoq muddatli saqlash talab qilinadi	Uzoq muddatli investitsiyalar, ko'chmas mulk
Qisqa muddatli aktivlar	12 oydan kam muddatda realizatsiya qilinadi	Naqd pul, debitor qarzarlar, qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar
Uzoq muddatli aktivlar	12 oydan ortiq muddatga mo'ljallangan	Uzoq muddatli obligatsiyalar, investitsion loyihalar
Investitsion aktivlar	Kelajakdagi daromad olish yoki kapital o'sish maqsadida qo'yiladi	Aksiyalar, obligatsiyalar, ko'chmas mulk
Operatsion aktivlar	Korxona faoliyatini ta'minlash uchun ishlatiladi	Naqd

Manba: muallif ishlanmasi

Ushbu jadval moliyaviy aktivlarning turli mezonlar bo'yicha klassifikatsiyasini ko'rsatadi. Moliyaviy aktivlar birinchi navbatda moddiy va nomoddiy shaklga bo'linadi. Moddiy aktivlar – jismoniy mavjud bo'lgan, qiymati o'lchanadigan resurslar bo'lsa, nomoddiy aktivlar – huquqiy yoki kontraktual asosda qiymatga ega bo'ladi.

Shuningdek, aktivlarni likvidlik darajasi bo'yicha ajratish ularning pulga aylantirilish tezligini ko'rsatadi. Likvid aktivlar tez pulga aylanishi va kamroq riskga ega bo'lishi bilan ajralib turadi, likvid bo'lmagan aktivlar esa uzoq muddatli saqlashni talab qiladi.

Muddat mezon bo'yicha esa qisqa muddatli va uzoq muddatli aktivlar ajratiladi. Qisqa muddatli aktivlar 12 oydan kam muddatda realizatsiya qilinadi, uzoq muddatlilar esa 1 yildan ortiq saqlashni talab qiladi.

Oxirgi mezon – aktivlarning maqsadi: investitsion va operatsion. Investitsion aktivlar kelajakdagi daromad yoki kapital o'sish uchun ishlatiladi, operatsion aktivlar esa korxona kundalik faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Date: 27th July-2026

Shu tarzda, moliyaviy aktivlarni tizimli klassifikatsiya qilish korxonalarga ularni samarali boshqarish, likvidlik va daromadni optimallashtirish imkonini beradi. Jadval orqali aktivlarning iqtisodiy mohiyati va ularning boshqaruvdagi roli aniq ko'rinadi.

Moliyaviy aktivlarni bozorda bajaradigan funksiyalariga qarab ikkita katta guruh: pul bozori instrumentlari (muomalada bo'lish vaqti bir yildan oshmaydigan moliyaviy instrumentlar) va kapital bozori instrumentlari (bir yildan ortiq muddatda muomalada bo'ladigan moliyaviy instrumentlar)ga bo'lish mumkin. Ifodalaydigan iqtisodiy mohiyatiga bog'liq ravishda qarz (obligatsiyalar, depozitlar va depozit sertifikatlar, veksellar, bank kreditlari), ulush (oddiy va imtiyozli aksiyalar) va hosilaviy (fyucherslar, opsiolar, forvardlar, svoplar, varrantlar) munosabatlarni anglatuvchi moliyaviy instrumentlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Moliyaviy aktivlarni muomalada bo'lish muddatiga ko'ra qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli va muddatsiz moliyaviy aktivlarga bo'lish mumkin.

Moliyaviy aktivlarni daromadlar shakllanishi va to'lanishi mexanizmiga ko'ra qat'iy belgilangan (imtiyozli aksiyalar, obligatsiyalar, depozitlar va jamg'arma sertifikatlar, veksellar, bank kreditlari va boshqalar), suzib yuruvchi (qarz instrumentlarining ayrim turlari, masalan suzib yuruvchi kupon stavkalariga ega obligatsiyalar) va o'zgaruvchan daromadga ega (oddiy aksiyalar, fyucherslar, opsiolar va boshqalar) aktivlarga bo'lish mumkin.

Risklilik darajasiga ko'ra risksiz (daromad ololmaslik va qo'yilgan kapitalni yo'qotish riskining rasmiy jihatdan yo'qligi), o'rtacha riskli (risk darajasi o'rtacha bozor riskiga o'zaro mos keladi) va yuqori riskli (daromad olish ehtimoli kam, boshqa tomondan yuqori daromad ham olish mumkin bo'lgan) moliyaviy aktivlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Muomala tavsifiga ko'ra moliyaviy aktivlarni bozor (erkin muomalada va fond bozorlarida oldi-sotdi obyektini hisoblanuvchi moliyaviy aktivlar) va nobozor (erkin oldisotdi obyektini hisoblanmaydigan, masalan bank depozitlari, sug'urta polislari va boshqalar) aktivlarga ajratish mumkin. Umuman moliyaviy aktivlarni boshqa belgilariga ko'ra ham tasniflash mumkin. Moliyaviy aktivlar investitsiyalashda eng likvidli aktivlar hisoblanadi. Lekin bunday aktivlar bahosi ularning nominal yoki haqiqiy qiymatidan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bunda moliyaviy aktivlarga qo'yilmalarning yuqori risklar bilan bog'liqligini ham hisobga olish lozim. Hozirgi vaqtda investitsiyalash uchun obyekt sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan ko'plab moliyaviy instrumentlar turlari amal qiladi. Lekin bugungi kun tajribasi bunday qo'yilmalar orasida qimmatli qog'ozlarning yuqori ulushga ega ekanligini ko'rsatib turibdi.

Xulosa

Tahlil va adabiyotlar asosida moliyaviy aktivlar iqtisodiyot va korxona faoliyatining ajralmas qismi ekanligi aniqlandi. Moliyaviy aktivlar nafaqat kelajakdagi daromad manbai, balki korxonaning likvidlik va moliyaviy barqarorligini ta'minlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ularning klassifikatsiyasi — moddiy va nomoddiy, likvid va likvid bo'lmagan, qisqa va uzoq muddatli, investitsion va operatsion — korxonalarga aktivlarni samarali



Date: 27th July-2026



boshqarish, moliyaviy risklarni kamaytirish va resurslardan optimal foydalanish imkoniyatini beradi. Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir aktiv turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning boshqarilishi korxona moliyaviy strategiyasining asosiy elementlaridan biridir. Shuning uchun moliyaviy aktivlarning iqtisodiy mohiyati va mazmunini to'liq anglash, ularni tizimli klassifikatsiya qilish va boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 9 - Financial Instruments. - London: IFRS Foundation, 2022.
2. Фоминых М.С. Бухгалтерский учет финансовых активов. - М.: Финансы и статистика, 2021.
3. Rasulova M.I. Moliyaviy aktivlar va ularning hisob siyosati. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritish bo'yicha metodik qo'llanma. - 2023.
5. Туровский, Н. С. (2024). Понятие и виды финансовых активов. Образование и право, (4), 245-250.
6. Qudbiyev, N. (2024). Principles of development of the financial management system in Uzbekistan. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 3(1 Part 3), DI-DS.
7. Учет и финансовый менеджмент: концептуальные основы: учеб. пособие / Н. Н. Илышева, С. И. Крылов, Е. Р. Синянская; [науч. ред. т. в. Зырянова]; м-во образования и науки Рос. федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2018. — 164 с.